

## ZARAFSHON VOHASI BRONZA DAVRI CHORVADOR QABILALARINING ETNOARXEOLOGIYASI

**Xayitov Fayzulla Zafar o'g'li**

*Samargand viloyat Nurobod tumani*

*6- umuman ta'llim maktab tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Zarafshon vohasining bronza davrimadaniyati, Zarafshon vohasining bronza davri yodgorliklarining o'r ganilish tarixi haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Zarafshon vohasi, Zamonbobo, yodgorliklar, Samargand arxeologiya.*

**Abstract:** *This article provides information about the Bronze Age culture of the Zarafshan oasis, the history of the study of the Bronze Age monuments of the Zarafshan oasis.*

**Key words:** *Zarafshan oasis, Zamonbobo, monuments, Samarkand archeology.*

### KIRISH

Zarafshon vohasining tarixiy yodgorliklari haqidagi dastlabki xabarlar ilk bor tog' injenerlari K.F.Butenev, F.Bogoslovskiy, yosh sharqshunos N.V.Xanikov asarlarida uchraydi. Ushbu asarlar Samargandning me'moriy yodgorliklari, shuningdek, Samarqandda temuriylargacha qadimgi shahar xarobasi-Afrosiyob va «Devori Qiyomat» haqida ilk bor ma'lumot beradi. Zarafshon general gubernatori topshirig'i bilan 1874- yilda mayor Borzenkov Afrosiyobda ilk bor arxeologik qazishma ishlarni boshlab yubordi. Biroq u hech qanday ilmiy tayyorgarlik va malakaviy uslubsiz qazish ishlarni olib borgan. Mashhur sharqshunos va arxeolog olim A.Yu.Yakubovskiyning ta'kidlashicha, mayor Borzenkov hech bir arxeologik tayyorgarliksiz qazishmalar olib borgan, chunki uning asosiy maqsadi noyob topilmalar topish bo'lgan. Shunga qaramay, uning qazishmalarini va ular haqidagi M.Rostislov publikatsiyasi Afrosiyobni o'rganuvchilar oldiga keng istiqbolni ochib berdi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1883-yilda general gubernator M.G.Chernyaevning topshirig'i bilan Afrosiyobda qazish ishlari bilan V.V.Krestovskiy shug'ullandi. U hatto Afrosiyob qazishmalariga N.I.Veselovskiyini jalb qilish masalasida gubernator M.G.Chernyaeva xat bilan murojaat qiladi. Biroq tarixiy yodgorliklarni o'rganish





bilan bog'liq ishlar Arxeologiya komissiyasi ruxsati bilan bilishi kerakligi bois V.V.Krestovskiyning bu xatti-harakatlari Sankt-Peterburg olimlari orasida norozilik kayfiyatini kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Hatto I.P.Minaev Rossiya arxeologlar jamiyatining yig'ilishida yodgorliklarni o'rganish ishi bilan faqat mutaxassis olimlar shug'ullanishi kerakligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Ammo N.I.Veselovskiy nomzodini komissiya ma'qullaydi va unga Turkiston o'lkasi yodgorliklarini o'rganish bo'yicha ruxsat berilishi bilan birga, unga arxeologik qazish ishlari bilan bog'liq ba'zi bir uslubiy maslahatlar berish ko'zda tutiladi. Chunki u tajribali arxeolog sifatida tegishli ma'lumotga ega emas edi. N.I.Veselovskiy 1885-yilda Samarqandga yetib kelib, Afrosiyobni o'rganishga kirishadi. U o'zining hisobotida Iskandar fath etgan qadimgi Samarqand aynan Afrosiyob ekanligini, 1220-yilda Chingizzon vayron etgan Samarqand ham aynan Afrosiyob ekanligini aniq aytadi. Sobiq sovetlar davrining dastlabki yillarda (30-40-yillarda) Zarafshon vohasi tarixi, madaniyati va madaniy merosini, birinchi navbatda, uning har uch vohasi (Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo) arxeologik yodgorliklarni o'rganishga qiziqish kuchaydi va bu ishlarda A.Yu.YAkubovskiy, V.A.Shishkin, M.E.Masson va Ya.Gulomov, G.V.Grigurev va A.I.Terenojkin, A.M.Belenitskiy va D.N.Lev kabi arxeologlar alohida faoliyk ko'rsatdilar. Ayniqsa, o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab Zarafshon vohasi bo'ylab Ya.Gulomov va V.A.Shishkin, A.M.Belenitskiy va D.N.Lev hamda ularning ko'p sonli shogirdlari tomonidan keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlar olib borildiki, natijada, bugungi kunga kelib, uni ilk ajdodlar tomonidan o'zlashtirilishidan boshlab to so'nggi o'rta asrlarga qadar bo'lган tarixi arxeologik jihatdan davrma-davr, bosqichma-bosqich o'rganildi, juda katta va ilmiy ma'lumotlarga boy faktik materiallar to'plandi, ularni davrma-davr umumlashtirish, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti va etnomadaniy rivojlanish jarayonlarini ilmiy xolislik, arxeologik obyektivlik, tarixiy ketmasetlikda o'rganish va ularni umumlashtirish imkoniyati tug'ildi.

Zarafshon vohasi, uning tog'li rayonlari odamzodning ilk ajdodlari tomonidan qadimgi tosh davrining muste bosqichidan boshlab o'zlashtirilgan. Bu holda dastlabki ma'lumotlarni Samarqand davlat universitetining arxeologi D.N.Lev asarlarida o'qish mumkin. D.N.Lev 1947-yilda Samarqand shahridan janubroqda, Taxtaqoracha dovoni yaqinidan Omonqo'ton g'orini topadi. Oradan 5 yil o'tgach, shahridan 50 kmlar chamasi janubiy-sharqdan Taqalisoy g'orini topib o'rgandi. Har ikkala g'orlarda olib borilgan arxeologik izlanishlar ularni qadimgi tosh davrining muste bosqichiga tegishli ekanligini ko'rsatdi. Zirabuloq va Ziyovuddin tog' etaklaridan (Zirabuloq va Qo'tirbuloq) topib o'rganildi. Ta'kidlash joizki, vohaning muste davri yodgorliklari asosan tog' bag'ridan qaynab chiqqan buloq bo'ylarida,





suvga yaqin g'orlarda makon topganlar. Darhaqiqat, Sarazmning yuqori qatlamida dasht qabilalariga xos qo'lda ishlangan Andronova madaniyati sopol parchalari uchraydi. Shuningdek, Sarazm IV davri metall komplekslari orasida ham bronza davri dasht qabilalari madaniyatiga tegishli pichoq va xanjarlar uchraydi. Shu bilan birga, Sarazmning eng Yuqori madaniy qatlam chuqurchalarida qo'lda yasalgan, sirti qizg'ish oq tiniq angob bilan pardozlangan rangli naqshli sopollar seriyasi uchraydi. Bu sopollar bir qarashda chust madaniyati sopollarini eslatadi.

Demak, bu ashyoviy dalillar tahliliga ko'ra, sarazmliklar dasht qabilalari bilan (Dashti Qazoni eslang) ma'dan konlari mojarosi tufayli Sarazmni tashlab ketgach, u joyda ma'lum vaqtlar o'tgandan so'ng so'nggi bronza davri rangli sopol madaniyati (Chust) qabilalarining kulbalari paydo bo'ladi. Agar masalaga A.Isxoqov xronologik davriy sistemasi nuqtai nazaridan yondashilsa, bu faraz g'ayritabiyy bir hol edi. Ammo qadimgi Sarazmning eng yuqori qatlami kompleksida so'nggi bronza davrining rangli sopol madaniyati sopolining uchratilishini ikki holat bilan tushuntirish mumkin: birinchisi, keyingi yillar tadqiqotlarida chust madaniyati sanasini arxeologlar orasida mil. avv. II-ming yillik o'talarigacha qadimiylashtirish kayfiyati hukm surmoqda, ikkinchisi, Sarazm IV yuqori sanasini miloddan avvalgi II-ming yillikning o'talarigacha yoshartirish g'oyasi olga surilmoqda. Shunday qilib, Yuqorida keltirilgan faktlardan kelib chiqib, Sarazm 1- Nomozgoh III bilan, Sarazm II - Nomozgoh IV bilan, Sarazm III - Nomozgoh V bilan, Sarazm IV - Nomozgoh VI bilan davrlashtirish mumkin.

Zarafshon vohasining ilmiy adabiyotlarda so'nggi eneolit va ilk bronza davri madaniyati hisoblanib kelingan Zamonbobo yodgorligi shu madaniyatga tegishli manzilgohlarning topilishi munosabati bilan A.Asqarov tomonidan muxtasar o'rganilib, ularning yoshi miloddan avvalgi II-ming yillikning birinchi yarmi bilan belgilandi. Biroq V.I.Sarianidi go'yoki Dashli kompleksida zamonbobo madaniyatiga xarakterli qushdonlarning topilishi bahonasida Zamonbobo madaniyatining yoshi miloddan avvalgi II-I ming yilliklar oralig'idan uzoqqa bormaydi, degan da'vo bilan chiqadi. V.I.Sarianidining xato xulosasi ta'sirida A.Asqarov Zamonbobo madaniyatining sanasini yoshartirish yo'lida maxsus maqola bilan chiqadi. B.A.Litvinskiy ham Zamonbobo manzilgohi yuzasidan terib olingan dasht qabilalarining sopollariga ishora qilib, V.I.Sarianidi taklifini asoslashga urinib ko'radi. Darhaqiqat, Katta tuzkon 35 manzilgohidan terib olingan sopollarning 98 foizini naqhsiz kulrang, shamot aralashmali qalin sopollardan iborat ekanini va manzilgoh maydonidan mis igna-bigiz va pichoq siniqlari hamda Zamonbobo qushdonlari parchalarining topilishini hisobga olganda Zamonbobo madaniyatining so'nggi eneolit va ilk bronza davriga tegishli ekanligiga hech bir shubha qolmaydi.



## Xulosa

Zarafshon vohasi bronza davri, ayniqsa, miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmida chorvador qabilalar tomonidan keng o'zlashtiriladi. Yodgorliklardan topilgan ashyoviy dalillar orasida sopol idishlar, turli xil taqinchoqlar, metalldan ishlangan uy-ro'zg'or va mehnat qurollari ob'ektlar xronologiyasini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ulardan qolgan ashyoviy dalillarning uchrashi oriy qabilalarining janubga migratsiyasi bilan bog'lanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, orylarning janubga Yurishi Avestoda ko'rsatilganidek, bir sana doirasida bo'limagan.

Ularning O'rta Osiyoga ommaviy ravishda kirib kelishi ikki bosqichda yuz bergen. Birinchi bosqich – miloddan avvalgi II-ming yillikning o'rtalariga to'g'ri kelsa, ularning ommaviy ravishda kirib kelishining ikkinchi bosqichi mil. avv. II-ming yillikning oxirgi choragiga to'g'ri keladi. Bu davr materiallari shimoliy Baqtiriyada Qo'ng'irtut va Teguzak manzilgohlarida uchraydi. Bu yodgorliklar davriy jihatdan Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi bilan zamondoshdir. Bu sanalar mutaxassislar orasida tan olingen. Shu bilan birga, ular orasida qadimiylikka davo qiluvchi Jukov memorial diniy kompleksi xronologik jihatdan Evroziya cho'llarida chorvachilik xo'jaligi endigina shakllanib borayotgan ilk bronza davri madaniyatlarining hosilasi bo'lishi mumkin. Undan keyingi xronologik prioretitga da'vo qiluvchi obyektlar To'qayli manzilgohi, Chakka qabristoni va Siyob yolg'iz .

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibragimov R. Z. Arxeologiya va etnologiya. (nashrda).
2. Egamberdieva N. A., Arxeologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2011.
3. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.[3]
4. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.

